

JINOYATNING MAXSUS SUBYEKTI VA JINOYAT SUBYEKTI FAKULTATIV BELGILARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHLTLARI



Karaketova Dilnoza Yuldashevna

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya. Maqolada jinoyat huquqida jinoyatning maxsus subyekti va jinoyat subyektining fakultativ belgilari o'rtasidagi mavjud o'xshashliklar tahlil qilingan. Maxsus subyekt belgilarining jinoyat tarkibiga qo'shimcha talablar sifatida belgilanishi, shu bilan birga, jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati ochib berilgan. Fakultativ belgilar esa jinoyatning og'irlik darajasini aniqlash yoki jazoni individuallashtirishda ishlatiladigan qo'shimcha belgilar ekanligi ko'rsatilgan. Maqolada ushbu belgilarning qonunda belgilanishi, jinoyatlarning qamrab olinish darajasi va huquqiy ahamiyatiga ko'ra asosiy farqlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat huquqi, jinoyat subyekti, maxsus subyektlar klassifikatsiyasi, fakultativ belgilari, Jinoyat kodeksi, jazoni individuallashtirish.

Аннотация: В статье проводится анализ сходств и различий между специальным субъектом преступления и факультативными признаками субъекта преступления в уголовном праве. Показано, что признаки специального субъекта представляют собой дополнительные требования к составу преступления и играют ключевую роль при его квалификации. В то же время факультативные признаки выступают в качестве дополнительных характеристик, которые учитываются при определении степени общественной опасности деяния и индивидуализации наказания. Особое внимание уделено различиям между этими признаками с точки зрения их законодательного закрепления, сферы охвата преступлений и правового значения.

Ключевые слова: уголовное право, субъект преступления, специальный субъект, факультативные признаки, Уголовный кодекс, индивидуализация наказания.

Abstract: This article examines the similarities and differences between the special subject of a crime and the optional characteristics of the subject of a crime in criminal law. It is demonstrated that the attributes of a special subject serve as additional requirements for the legal elements of a crime and play a crucial role in its qualification. Conversely, optional characteristics function as supplementary factors that are considered in determining the degree of social danger posed by the offense and in the individualization of punishment. The article places particular emphasis on the distinctions between these features in terms of their statutory codification, scope of applicable crimes, and legal significance.

Keywords: criminal law, subject of crime, special subject, optional characteristics, Criminal Code, individualization of punishment

Jinoyat huquqida subyekt masalasiga oid qarashlarda jinoyatning maxsus subyekti masalasi keng tadqiq etilgan. Professor Q.R. Abdurasulova tomonidan jinoyatning maxsus subyekti masalasida alohida tadqiqot o'tkazilgan bo'lib, biz ushbu va o'z tadqiqotimizga murojaat qilgan holda jinoyatning maxsus subyekti va jinoyat subyektining fakultativ belgilari

o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ochib berishga harakat qilamiz.

“Jinoyat huquqida jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs, agar u mazkur qonunda belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga to'lgan va aqli raso holatda bo'lsa, jinoyat subyekti deb topiladi. Ammo bu belgilar ba'zan muayyan shaxsni bir qator

jinoyatlarning subyekti, deb topish uchun yetarli bo'lmaydi. Bunday holatlar uchun qonun chiqaruvchi Jinoyat kodeksida bir qator qo'shimcha alomatlarini nazarda tutganki, yuqorida zikr etilganga o'xshash jinoyatlarni sodir etgan shaxslar mana shu alomatlariga qarab aniqlanadi. Mana shu toifaga mansub shaxslar jinoyat huquqida jinoyatning maxsus subyekti deb ataladi" [1].

Ba'zi bir mualliflarning fikricha, "ayrim hollarda Jinoyat kodeksining Maxsus qismi normalarida qo'shimcha belgilarga ega shaxslar uchun alohida jinoyiy javobgarlik belgilanadi. Masalan, pora olish uchun faqat mansabdor shaxslar javobgar bo'lsa, dezertirlikda faqat harbiy xizmatchilar javobgar bo'ladi. Bunday qo'shimcha belgilar muayyan jinoyatning subyektini tavsiflovchi zaruriy belgi sifatida namoyon bo'ladi. Yosh va aqli rasolik jismoniy shaxsni jinoyat subyekti deb belgilovchi umumiy belgilar hisoblanadi va shu sababdan ham ular jinoyat subyektining zaruriy yoki umumiy belgilari deb yuritiladi. Jinoyat qonunining maxsus normalarida belgilangan alohida belgilarga ega subyektlar "maxsus subyektlar" deb yuritiladi" [2].

A.V.Galaxovaning fikricha, "muayyan jinoyat subyektining belgilarini tadqiq qilish maxsus subyektlar xususiyatining o'ziga xosliklari tufayli qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Qonun chiqaruvchi jinoyat qonunida javobgarlikni differentsiatsiya qilishda maxsus subyektlar belgilaridan keng foydalansa-da, qonunda jinoyatning maxsus subyekti rasmiy tushunchasi mavjud emas" [3].

Yu.V.Karavayeva maxsus subyektning kriminologik jihatlarini ko'rib chiqib, quyidagi xulosalarga kelgan: "Kriminologik-huquqiy yondashuv doirasida jinoyatning maxsus subyekti tushunchasini quyidagicha shakllantirish mumkin: bu jismoniy, axloqiy jihatdan sog'lom shaxs bo'lib, qonun bilan belgilangan jinoyat uchun javobgarlik yoshiga yetgan va jinoyatni o'zining ijtimoiy maqomi yoki roli orqali sodir etgan shaxsdir. Shu bilan birga, shaxs jinoyatning maxsus subyekti ekanligini belgilovchi xususiyat – uning ijtimoiy maqomi yoki rolini qonun (huquq normasi)da aks ettirish hisoblanadi" [4].

Yuqoridagi mualliflar fikrlarini tahlil qilgan holda, maxsus subyektlar jinoyat subyektining umumiy belgilaridan tashqari, jinoyat qonuni Maxsus qismining muayyan normalarida jinoyat

subyekti bo'lishi uchun nazarda tutilgan qo'shimcha belgilarga ega shaxslar ekanligi haqida xulosaga kelish mumkin.

Adabiyotlarda maxsus subyektning belgilari ham ochib berilgan. Maxsus subyektning belgilari Jinoyat kodeksi muayyan moddasining dispozitsiyasida tavsiflanadi yoki bevosita uning ma'nosidan kelib chiqadi. Aksariyat hollarda ular Jinoyat kodeksi Maxsus qismi tegishli moddasi dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatiladi, ya'ni qonun chiqaruvchi tomonidan mazkur jinoyatning subyekti bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsning alomat(belgi)lari ko'rsatiladi. Ba'zi hollarda mazkur alomatlar Jinoyat kodeksining alohida normalarida ham tavsiflanishi mumkin, masalan, Jinoyat kodeksining 34-moddasida "o'ta xavfli retsivist" tushunchasi ochib berilgan. Yoki Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli normalarida "mansabdor shaxs", "hokimiyat vakili" kabi tushunchalarga to'xtalib o'tmaslik uchun, ularning ta'riflari atamalarning huquqiy ma'nosi bo'limida berilgan.

Q.R.Abdurasulova maxsus subyektlarning qonunda ifodalanishiga oid quyidagi misollarni keltiradi: "Maxsus subyektlarning belgilari ko'pgina hollarda Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning asosiy tarkiblarida tavsiflangan, masalan, temiryo'l, dengiz, daryo yoki havo transportini boshqaruvchi shaxs (JKning 260-moddasi), o'zganing mulki ishonib topshirilgan shaxs (JKning 167-moddasi) va hokazo. Qolgan belgilar jinoyatlarning kvalifikatsiyaviy, alohida kvalifikatsiyaviy tarkiblarida nazarda tutilgan. Masalan, o'ta xavfli retsivist (JKning 34-moddasi) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoyatlarning aksariyat tarkiblari faqat bitta maxsus subyektning alomatlariga ega: masalan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi (157-modda), sudya (231-modda) va boshqalar.

Ba'zi bir hollarda moddalar dispozitsiyasida, muqobillik asosida, bir nechta maxsus subyektning belgilari tavsiflanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 224-moddasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, 235, 238-moddalarida esa – tergovchi, guvoh, tarjimon va ekspert maxsus subyektlar sifatida tilga olinadi.

Ba'zan maxsus subyektlar, muqobillik asosida, modda dispozitsiyasida umumiy subyektlar bilan

birga ko'rsatiladi. Masalan, jazoni og'irlash-tiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (JKning 97-moddasi, 2-qismi) uchun ham umumiy, ham maxsus subyektlar, aytaylik, o'ta xavfli retsidivist, kontrabanda (JKning 246-moddasi) uchun ham umumiy (oddiy fuqaro), ham maxsus subyektlar, aytaylik, mansabdor shaxs javobgar bo'ladi"[5].

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda ta'kidlash joizki, jinoyat qonuni Maxsus qismi normalarida jinoyat subyektining umumiy (zaruriy) belgilari ko'rsatilmaydi, chunki ular barcha jinoyatlar uchun zarur belgi hisoblanadi.

Maxsus subyekt belgilari, odatda, pozitiv shaklda ifodalanadi, ya'ni faqat shu belgiga ega shaxs jinoyat subyekt bo'lib, qolganlar ushbu jinoyat uchun javobgar bo'lmaydi. Masalan, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi (JKning 205-moddasi)da nazarda tutilgan jinoyat uchun faqat ushbu norma dispozitsiyasida ko'rsatilgan shaxslar javobgar bo'ladi.

Ayrim hollarda esa, maxsus subyekt negativ shaklda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, Jinoyat kodeksining 190-moddasida faoliyat bilan litsenziyasiz yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoxud xabarnoma yubormasdan shug'ullanganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, javobgarlik kelib chiqishining zaruriy sharti sifatida litsenziya yoki ruxsat olish talab qilinadigan faoliyat bilan tegishli litsenziya yoki ruxsat olmaganlik hisoblanadi.

Adabiyotlarda maxsus subyekt belgilarini ba'zan fakultativ belgilar deb ham atashadi. Bu yerda aniqlashtirilishi lozim bo'lgan muhim masala shundaki, bunda fakultativ belgilar jinoyat tarkibiga nisbatan emas, balki subyekt umumiy tushunchasiga nisbatan olinadi. Ularning alohida belgilari muayyan jinoyat tarkibida belgilangan holda esa, ular subyektning zaruriy belgilari hisoblanadi va, o'z navbatida, ularga ikkinchi darajali yoki qo'shimcha belgilar sifatida qaralmasligi kerak. Hattoki ayrim jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jarayonida subyektning umumiy belgilari emas, balki maxsus belgisi birinchi navbatda ko'rib chiqiladi. Masalan, pora olishda, avvalo, shaxsning

mansabdor ekanligi aniqlanadi, shaxs mansabdor bo'lmasa, uning qilmishi firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Maxsus subyekt nazarda tutilgan Jinoyat kodeksining Maxsus qismi muayyan normasida maxsus subyekt belgilarining bo'lmasligi, ushbu jinoyat uchun subyektning zaruriy belgilari mavjud bo'lganida ham mazkur jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni istisno qiladi. Masalan, Jinoyat kodeksining 205-moddasida hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi jinoyatida, agar shaxs mansabdor bo'lmasa, ushbu jinoyat ham mavjud emas, deb hisoblanadi.

M.F.Kuznetsova, I.M. Tyajkova "jinoyat subyekt fakultativ belgilari" degan tushunchaga shubha bilan qarashadi. Ularning fikricha, maxsus subyekt belgilari ba'zan fakultativ belgilar deb ataladi. Ammo bu aniqlashtirishni talab qiladigan masala hisoblanadi. Ushbu belgilar jinoyat tarkibi uchun fakultativ hisoblanmaydi, balki jinoyat subyektini umumiy tushunish uchun qo'llaniladi. Belgilar muayyan jinoyat tarkibida ko'rsatilgan hollarda ular qat'iy zaruriy belgilar hisoblanadi va bunda ular qo'shimcha yoki ikkinchi darajali belgi deb qaralmasligi kerak [6].

Umuman olganda, yuqoridagi fikrda jon borligini ta'kidlab o'tish lozim. Haqiqatan ham adabiyotlarda asosan jinoyatning maxsus subyekt masalasi o'rganilgan bo'lib, keyingi vaqtlarda jinoyat subyekt fakultativ belgilari atamasi qo'llana boshlandi. Bunda, ushbu ikkala tushunchani aralashtirib yuborish holatlari ko'p uchraydi.

Jinoyat subyektining fakultativ belgilarini amaliyotchilar qanday tushunishini aniqlash bo'yicha so'rov o'tkazildi. So'rovda 6600 nafar respondent ishtirok etdi.

Jinoyat subyektining fakultativ belgilarini qanday tushunasiz, degan savolga 46, 89% bu jinoyat tarkibi asosiy belgilari qatoriga kiradi, 41,37% bu jinoyat subyektining qo'shimcha, ammo muhim xususiyatlaridan biri, 11,72% jinoyat subyektining fakultativ belgilari amalda qo'llanilmaydi, deb javob berishgan. Bu jinoyat subyekt fakultativ belgilari haqida bilimlarning yetarli emasligini ko'rsatadi.

Quyidagi qaysi belgilar jinoyat subyektining fakultativ belgilari hisoblanadi, degan savolga 16,3% respondent aybdorning jabrlanuvchi bilan munosabatlari; 36,27% respondent jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfli holati; 20,84% respondent jinoyat sodir qilgan shaxsning ruhiy holati; 26,57% respondent jinoyat sodir qilgan shaxsning kasbiy faoliyati yoki lavozimi deb javob berishgan.

Fakultativ belgilarga ega shaxslar sodir etgan jinoyatlarga nisbatan jazo choralari kuchaytirilishi kerakmi, degan savolga 24,46% respondent ha, chunki bu belgilar jinoyat xavfini oshiradi; 52% respondent yo'q, chunki ularni hisobga olish har doim ham odil qarorga olib kelmaydi; 23,53% respondent bu holat jinoyat turiga bog'liq bo'lishi kerak, deb javob berishgan. Ko'rinib turibdiki, fakultativ belgilarga jazo tayinlashda yetarli e'tibor qaratilmaydi, bu esa jazoning individualligi prinsipiga zid hisoblanadi.

Jinoyat subyektining fakultativ belgilari sud amaliyotida qay darajada inobatga olinadi, degan savolga 22,65% respondent doim inobatga olinadi; 20,62% respondent aksariyat hollarda e'tiborga olinmaydi; 56,72% respondent faqat muayyan turdagi jinoyatlarda e'tiborga olinadi, deb javob berishgan.

Sizningcha, fakultativ belgilar jinoyatga huquqiy baho berishda qanday ahamiyat kasb etadi, degan savolga jinoyat tasnifini aniqlashda yordam beradi, deb 41,98%; jazoni aniqlashda muhim omil bo'ladi, deb 42,33%; hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, deb 15,68% respondent javob bergan.

Qaysi jinoyat turlarida jinoyat subyektining fakultativ belgilari alohida ahamiyat kasb etadi, degan savolga mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarda 33,56%; jabrlanuvchiga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarda 51,74%; iqtisodiy jinoyatlarda 14,69% deb javob berildi.

Jinoyat subyektining fakultativ belgilari jinoyat qonunchiligida aniqroq tartibga solinishi kerakmi, degan savolga respondentlarning 30,31% ha, chunki bu huquqiy aniqlikni oshiradi; 49,3% yo'q, chunki bu huquqni qo'llashda murakkablik keltirib chiqaradi; 20,37% bu masala har bir jinoyat turiga ko'ra tahlil qilinishi kerak, degan fikrni bildirishgan.

Sizningcha, fakultativ belgilariga ega jinoyat subyektlarini jinoiy-huquqiy tahlil qilish amalda

to'g'ri olib borilmoqdami, degan savol bo'yicha respondentlar quyidagicha javob berishgan:

ha, amalda bu tushuncha yetarlicha qo'llanilmoqda – 31,46%;

yo'q, bu tushuncha amaliyotda kam qo'llaniladi – 31,63%;

ba'zi jinoyat turlarida e'tiborga olinadi, ba'zilarida e'tiborga olinmaydi – 36,89%.

Jinoyat subyektining fakultativ belgilari jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qanday o'rin tutadi, degan savolga quyidagicha javob berilgan:

ular aybni aniqlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi – 34,13%;

ular faqat jazoni belgilashda inobatga olinadi – 37,22%;

ular jinoyatga huquqiy baho berishda kam ahamiyat kasb etadi – 28,63%.

Lavozim yoki kasbiy faoliyat jinoyat subyektining fakultativ belgisi sifatida qanday ahamiyatga ega, degan savolga quyidagicha javob berildi:

bu jinoyatni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi – 30,75%;

faqat muayyan jinoyatlar uchun e'tiborga olinadi – 44%;

bunday holatlar qonunchilikda aniq belgilanmagan – 25,19%.

Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi masalasiga qanday qaraysiz, degan savolga javoblar quyidagicha bo'ldi:

salbiy, jinoyat subyektini faqat jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin – 20,78%;

ijobiy, chunki ekologiya, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun yetkazilgan zarar o'rnini qoplashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi – 34,24 %;

yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi bitta qilmish uchun ikki marta javobgarlik (yuridik shaxs mansabdorlari va yuridik shaxsning o'ziga) qo'llanilishiga olib keladi – 44,96%.

Sun'iy intellektni jinoyat subyektini sifatida baholash mumkinmi, degan savolga javoblar quyidagicha:

yo'q, u jinoyat subyektini uchun belgilangan mezonlar (jismoniy shaxs, aqli rasolik, yosh senzi)ga javob bermaydi – 25,13%;

sun'iy intellekt dasturiy ta'minot bo'lganligi uchun undan keltirilgan zarar uchun ishlab chiqaruvchilar javobgar bo'lishi kerak – 46%;

kelajakda sun'iy intellekt mustaqil jinoyat sodir

etsa, uni jinoyat subyekti sifatida ko'rib chiqish mumkin bo'ladi – 28,78%.

So'rov natijalari jinoyatning subyekti fakultativ belgilarini tadqiq qilish bo'yicha ko'proq izlanishlar olib borilishi zarurligini ko'rsatdi. Quyida maxsus subyekt belgilari va fakultativ belgilar o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun ularni ko'rib chiqamiz.

O'z xususiyatiga ko'ra, maxsus subyekt belgilari turli xil ekanligini kuzatish mumkin. Ular shunchalik turfa bo'lib, mavjudligi ayrim hollarda qilmishni ijtimoiy xavfli qilsa, ba'zi hollarda uning xususiyati va ijtimoiy xavfliligini keskin kamaytirishi mumkin. Jinoyat kodeksining Maxsus qismida maxsus subyekt belgilari juda keng qo'llanilgan.

Q.R.Abdurasulovanning fikricha, "jinoyatning maxsus subyektni tavsiflovchi belgilar Jinoyat kodeksi Maxsus qismining dispozitsiyalarida uch holatda ko'rib chiqiladi, birinchi holatda maxsus subyektni tavsiflovchi belgilar jinoyat tarkibining asosiy belgilari jumlasiga kiritilgan. Shu bilan birga, mazkur belgilar jinoyat tarkiblarini tavsiflovchi belgilariga ham xosdir. Masalan, Jinoyat kodeksining 207-moddasi 1-qismida maxsus subyekt nazarda tutiladi. Mazkur moddaning 2 va 3-qismlari maxsus subyektga to'g'ridan to'g'ri ishora qilmasa-da, faqat maxsus subyekt – mansabdor shaxs mazkur kvalifikatsiyaviy alomatlarining subyekti bo'lishi mumkin.

Ikkinchi holatda maxsus subyektni tavsiflovchi belgilar jinoyat tarkiblarining asosiy belgilari emas, balki kvalifikatsiyaviy belgilari jumlasiga kiritilgan, masalan, Jinoyat kodeksining 164–169-moddalarida nazarda tutilgan «o'ta xavfli retsidivist» kvalifikatsiyaviy belgi maxsus subyektga taalluqli bo'lib, ushbu shaxsning o'g'rilik yoki bosqinchilik jinoyati sodir etishi Jinoyat kodeksining 169-moddasi 4-qismi yoki 164-moddasi 4-qismi bilan javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Uchinchi holatda esa, maxsus subyektni tavsiflovchi belgilarining asosiy va jazoni og'irlashtiruvchi tarkiblarga kiritilishi qonun chiqaruvchiga jinoiy javobgarlikni asosli ravishda differentsiatsiya qilish imkonini beradi" [7]. M.V. Lyubavinaning fikricha, jinoyatning maxsus subyekti faqat bajaruvchi bo'ladi [8].

Maxsus subyektlar klassifikatsiyasi haqida turlicha qarashlar mavjud bo'lsa-da, odatda, adabiyotlarda ular quyidagi uch turga bo'linadi:

subyektning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi va huquqiy holatiga oid belgilar (fuqarolik, harbiy xizmatchi ekanligi, kasbi, lavozimi va boshqalar);

subyektning jismoniy xususiyatlari (jinsi, yoshi, ruhiy holati), jabrlanuvchi bilan o'zaro aloqasi (ona, yaqin qarindosh, farzand)[9].

Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, "klassifikatsiya uchun asos sifatida belgilarni emas, balki jinoyat subyektlarini ularni tavsiflovchi belgilari majmuasi bilan olish lozimligini taklif qiladilar. Chunki jinoyat subyektning ma'lum belgilari mavjudligi shaxsning jinoiy-huquqiy munosabatlar doirasidagi huquqiy maqomiga ta'sir qiladi, bu esa to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Ular uch turdagi subyektni ajratadi: bitta umumiy jinoyat subyekti va ikkita maxsus subyekt.

Birinchi turdagi maxsus subyekt – individual aniqlangan subyekt. Individual aniqlangan subyektning o'ziga xosligi shundaki, uni tavsiflovchi belgilari to'g'ridan to'g'ri shaxsning o'ziga bog'liq. Bu belgilar shaxs tug'ilishi bilan kelib chiqishi yoki hayot davomida shakllanishi mumkin. Ushbu shaxsiy xususiyatlar jinoyat huquqi normalarini qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun jinoyat subyektni mazkur belgilari majmuasiga ko'ra ajratish huquqiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Individual aniqlangan subyektning belgilariga quyidagilar kiradi:

- yosh (masalan, voyaga yetmagan shaxs);
- jins (masalan, erkak);
- qarindoshlik munosabatlari (ota-ona, bolalar, yaqin qarindoshlar);
- kasallikning mavjudligi (masalan, tanosil yoki OIV/OITS);
- ilgari jinoiy faoliyat bilan bog'liq ma'lumotlar (masalan, takroranlik, retsidivlik);
- tergov hibsonasida yoki jazoni o'tash muassasasida bo'lish va boshqalar.

Ikkinchi turdagi maxsus subyekt normativ jihatdan aniqlangan jinoyat subyektidir. U jamiyat munosabatlari tizimida qonun bilan yuklatilgan majburiyatlar, bajarayotgan ishi, faoliyat turi yoki egallab turgan lavozimi sababli alohida mavqega ega. Normativ jihatdan aniqlangan subyektni quyidagi belgilari tavsiflaydi:

- fuqarolik (fuqaro, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs);

Foydalanilgan manbalar

1. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyekti: O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI nashriyoti, 2005. – 4b.
2. Кузнецова М.Ф., Тяжкова И.М. Курс уголовного права. Т.1. – М., 2005. – С. 166
3. Галахова А. В. Субъект преступления и его толкование в судебной практике // Российская юстиция. – 2008. – № 2. – С. 38-42.
4. Караваева Ю. С. Специальный субъект преступления: криминологический подход: Дис. ...канд. юрид. наук. – Омск, 2017. – 198 с.
5. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyekti: O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI nashriyoti, 2005. – 37–38-b.
6. Кузнецова М.Ф., Тяжкова И.М. Курс уголовного права. Т.1. – М., 2005. – С. 183
7. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyekti: O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI nashriyoti, 2005. – 38–39-b.
8. Субъект преступления: Учебное пособие / М. А. Любавина. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский юридический институт (филиал) Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2014. – С 52.
9. Уголовное право Российской Федерации. Общая часть: учебник для вузов / Под ред. В. С. Комиссарова, Н. Е. Крыловой, И. М. Тяжковой. – М., 2012. 879 с.; Уголовное право Российской Федерации. Общая и Особенная части: Учебник /Под ред. А. И. Чучаева. М., 2013. 704 с.; Ермакова Л. Д. Специальный субъект преступления // Уголовное право Российской Федерации. Общая часть / Под ред. Б. В. Здравомыслова и др. – М., 1994. – С. 217.
10. Уголовное право России. Общая часть: Учебник / Под ред. Ф.Р.Сундукова, И.А.Тарханова. 3-е изд., перераб. и доп. – М., 2009. – 751 с.

